

UDK: 619:616.981.42:616.9

BRUTSELLYOZ KASALLIGINI EPIZOOTOLOGIYASI

Xolmurodova M.K. – magistr.

Aliyev D.D. - Ilmiy rahbar: b.f.d.

Klichov O.I. – assistent.

Murodillayev Sh.H. – assistent.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya: Maqolada qishloq xo'jaligi hayvonlarining brutsellyoz kasalligi qo'zg'atuvchisining turlari, kasallik qo'zg'atuvchi manba, qo'zg'atuvchining tarqalishi, qo'zg'atuvchining zararlanish yo'llari, epizootik holat, kasallik qo'zg'atuvchisining namoyon bo'lishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: XEB, Brucella abortus, Brucella melitensis, Brucella ovis, Brucella suis, Brucella neatomoe.

Kirish. Mamlakatimizda chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilikni rivojlantirish bo'yicha keyingi yillarda chiqarilgan Prezidentimiz Farmon va Qarorlari, VM-sining qarorlari, VCHRQ - ning qarorlari, ularning ijrolari.

O'zbekistonda chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilikni rivojlantirish keyingi yillarda davlat e'tibori miqyosidagi masalalarga kiritilgan.

Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoevning 2017-yil 9-dekabrda «Qishloq xo'jalik hodimlari kuni» munosabati bilan tashkil etilgan tadbirdagi nutqida veterinariya tizimi ahamiyati haqida shunday degan edi: «Aholini sifatli go'sht, sut, tuxum va baliq maxsulotlari bilan yetarlicha ta'minlash eng asosiy vazifalarimizdan biridir. Bunga erishish uchun quyidagi masalalarga a'lohida e'tibor qaratishimiz zarur. 2018-2019 yillarda bank kreditlari hisobidan 145 loyiha doirasida qo'shimcha 35 ming bosh zotdor qoramol boqish yo'lga qo'yiladi. Umumiy qiymati 280 mlrd so'm bo'lgan 80 ta loyiha asosida qo'shimcha 3 mln 200 ming bosh parranda boqishga mo'ljallangan xo'jaliklarni tashkil etish zarur. Shuning hisobidan 2018 yilda tuxum yetishtirishni 10% ga oshirib, uning umumiy hajmini 7 mlrd 800 mln. donaga yetkazish imkoni yuzaga keladi. Kelgusi yilda 2019 yilda baliq yetishtirishni 150 ming t.ga yetkazish maqsadida 215 milliard so'mlik, 280 loyiha amalga oshiriladi, 1 ming 650 ta sun'iy suv havzalari tashkil etiladi. 25 ta suv omborida Vetnam tajribasi asosida 13- ming tonna, 37 ming gektar sholizorda qariyb 15 ming t. baliq yetishtirish bo'yicha chora-tadbirlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda xar bir fermer xo'jaligida 14 ming sog'in sigir, 21 ming 125 fermer xo'jaligining har birida 50-boshdan, jami 1 mln 57 ming parranda, 66 ming fermer xo'jaliklarida 329 ming quti asalari boqish hisobidan 7 ming 200 tonna asal yetishtirishni yo'lga qo'yish mumkin.

Mavzuning dolzarbligi. Kasallik dunyo mamlakatlarida keng tarqalgan odamlarga zararsizlantirilmagan kasal mollardan olingan mahsulotlari; go'sht, sut, va sut mahsulotlari orqali osongina yuqadi. Xo'jalikda zotli qoramollarda brutsellyoz aniqlanganda, birinchidan bo'g'oz sigirlarda yoppasiga abort kuzatiladi, sut olish

keskin kamayadi, fermada naslchilik ishlarini olib borish ta'qiqlanadi, buzoq olish kamayadi, karantin va sog'lomlashtirish tadbirlariga katta mablag'lar sarflanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Chorvachilik xo'jaliklarida brutsellyoz kasalligini epizotologik holatini yangi metodlar bilan aniqlab brutsellyozga sog'lomlashtirish tadbirlarini olib borish odamlar va hayvonlarni brutsellyoz kasalligidan himoya qilish va qarshi kurashish ishlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning vazifasi. Hozirgi kunda meditsina, veterinariya meditsinasi mutaxassislarini vazifasi brutsellyoz kasalligining diagnostikasi, profilaktikasi, sog'lomlashtirish tadbirlarini veterinariya nizamiga muoffiq ilmiy asoslangan holda mukammal bajarishga qaratilgan. Kasal hayvonlardan olingan mahsulotlarni to'liq zararsizlantirib iste'molga yaroqli yoki yaroqli emasligini mahsus yo'riqnoma asosida hal etish. Yana bir muammo kasallik tarqalishini to'xtatish, sog'lomlashtirish tadbirlarini veterinariya yo'riqnomasi asosida bajarish.

Brutsellyozni epizootologiyasi. Barcha qishloq xo'jaligi hayvonlari brutsellezga moyil. Qoramol, yak, buyvol, tuya va otlar *Brucella abortus bovis* – ga, qo'y echki, buyvol *Brucella melitensis* – ga, qo'chqorlar *Brucella ovis* – ga, kalamushlar *Brucella neatomoe* – ga, parrandalar brutsellyozga chidamli, eksperimental ham yuqtirib bo'lmaydi. *Brucella melitensis* – qo'y echkidan qoramolga va cho'chqaga, *Brucella suis* – esa qo'y echkiga o'tishi aniqlangan.

Qoramollarda, qo'y echki, cho'chqa, shimol bugilarida brutsellyoz epizotik holatda, ot, it va boshqa xayvonlarda sporadik holatda uchraydi. Kasallik qo'zg'atuvchi manba –kasal hayvonlar, ayniqsa klinik belgilari namoyon bo'lganda yoki homila tashlaganda, homila suvi, o'zi, jinsiy a'zolaridan oqqan shilimshiqlar, suti, siydigi, fekaliysi (najasi), kasal buqa urug'i. Brutsellyoz qo'zg'atuvchisi sigir yelinida 7-9 yil, qo'y yelinida 3-yil saqlanadi va doimo sut bilan ajraladi. Bo'g'oz sigir xomila tashlagandan keyin 15-30 kun davomida jinsiy a'zolaridan juda ko'p miqdorda brutsellalarni ajratib turadi. Tashlangan homilaning o'z vaqtida zararsizlantirmasligi o'ta xavflidir. Kasallik yaylov sharoitida ham juda kamdan-kam yuqadi. U asosan qora mollar bir joyda turganda ro'y beradi.

Qo'zg'atuvchining tarqalishi – yuqish, uzatilish omillari- kasal hayvonlar, ularning sutlari, fekaliysi, siydigi, jinsiy a'zolaridan oqqan shilimshiqlari bilan ifloslangan ozuqa, yaylov, to'shama, hayvonlarni parvarish qilishda ishlatiladigan inventarlar (kurak, shoxa, supurgi va b.) xisoblanadi.

Zararlanish yo'llari – yosh hayvonlar asosan alimentar voyaga yetgan xayvonlar alimentar, kontakt, jinsiy aloqa vaqtida shilliq pardalar va teri orqali zararlanadi. Tabiiy sharoitda brutsella sog'lom organizmga alimentar yo'l bilan, suv va hashak orqali, ko'z, burun, og'iz shilliq pardalari hamda jinsiy a'zolar orqali yuqadi. Ko'p hollarda brutsellyoz hayvonlar suv ichadigan manbalardan yuqadi. Kasallikning yuqishi va tarqalishida brutsellyoz bo'yicha sog'lom xo'jaliklarga tekshirilmasdan olib kelingan hayvonlar orqali ham kasallik tarqalishi mumkin. Qo'chqor va xo'nojinlar eng xavfli hisoblanadi, chunki ularda kasallik ko'pincha yashirin kechadi. Sut mahsulotlari talab darajasida pasterizatsiya qilinmaganda, sut zavodlari ham kasallik tarqaladigan manbaga aylanishi mumkin.

Brutsellyoz fermaga kasal hayvon keltirilganda, karantin shartlari buzilganda, kasal va sog'lom hayvonlar yaylovda birga boqilganda, bir joydan sug'orishda yoki

it, kemiruvchilar orqali yuqadi. Odatda yangi epizootik o'choqda bir necha oy davomida 60% va undan ko'p hayvon kasallanishi mumkin. Podada oldin 1,2 bosh keyin hayvonga homila tashlash kuzatiladi. Bunday xo'jalikka 2.3 yildan keyin yangi sog'lom qora mol keltirilgan avval o'sha mollarda brutsellyoz, keyin ushbu xo'jalikdagi mollarda kasallikni o'tkir shaklda kuzatiladi. Hayvonlarni qayta guruhlash yangi o'choq kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Kasallikning tarqalishida o'lgan hayvonlar, kemiruvchilar va hashorotlar ham katta ro'l o'ynaydi. Tabiatda ularning brutsella tarqalishiga olib keladi. Brutsellalarning hayvonlar turlari orasidan ajratiladi ham ancha kuchli, ular bir tur hayvondan 2 ta tur hayvonlarga o'tib turadi. Bu holat ayniqsa, hayvonlar tabiiy chidamliligi pasayib ketganda yoki qo'zg'atuvchining yangi biovariantlari paydo bo'lganda ro'y beradi.

To'yimsiz ozuqalar, zoogigienik talablarga rioya qilmaslik, tashlangan homilani tezda zararsizlantirmaslik, dezinfeksiyaning o'z vaqtida bajarilmasligi mollar tiqilinch saqlanishi, go'ngni o'z vaqtida tuzatmaslik va makro-mikro qiymatining buzilishi va boshqa omillar umumiy rezistentlikni pasaytiradi, oqibatda kasallik avjiga chiqadi.

Xulosalar

1.Brutsellyoz barcha nosog'lom hududlarda uchraydi, kasallik kelib chiqishi oqibatida ko'pgina hayvonlar nobud bo'ladi va xo'jalikka katta iqtisodiy zarar yetkazadi.

2.Brutsellyozga o'z vaqtida profilaktik maqsadda epizootik tekshirish usullar orqali, epizootologik holatini aniqlashimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Salimov X.S., Qambarov A.A., Salimov I.X., "Epizootologiya va infeksiyon kasalliklar" darslik 2021 yil. Lesson Press MChJ nashriyoti.

2. Salimov X.S., Qambarov A.A. "Epizootologiya" darslik 2016 yil. F.Nasimov nashriyoti

3. Egamberdiyevich, Ruziyev Zohid, Klichov Odil Ilkhomovich, and Allazov Anvar Salokhovich. "Sheep Brucellosis Is A Dangerous Disease (Literature Review)." *Academica Globe* 2.12 (2021): 11-13.

4. Ilkhomovich, Klichov Odil, Allazov Anvar Salokhovich, and Nurgaliyeva Janar Sarsengaliyevna. "Methods of checking for brucellosis in sheep and prevention measures." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.10 (2021): 825-828.

5. Klichov, O. I., and A. S. Allazov. "BRUTSELLYOZNI SEROLOGIK TEKSHIRISH USULI VA NOSOG'LOM XO'JALIKNI SOG'LOMLASHTIRISH TADBIRLARI." (2023): 25-28.

6. Klichov, Odil. "BRUTSELLOZNI TEKSHIRISH USULLARI VA OLDINI OLISH TADBIRLARI." *VETERINARIYA VA CHORVACHILIK SOHASIDAGI YUTUQLAR MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI* (2021).

7. Klichov Odil. "BRUTSELLYOZNI DIAGNOSTIKASI." *VETERINARIYA MEDITSINASI* (2023).

8. Klichov Odil. "BRUTSELLYOZ QO'ZG'ATUVCHISINI O'RGANILISH TARIXI." *VETERINARIYA MEDITSINASI* (2023).
9. Mukhitdinov, S., Aliyev, D., Ismoilov, K., & Mamurova, G. (2020). The role of biologically active substances in the blood in increasing the productivity of sheep. *European Journal of Molecular and Clinical Medicine*, 7(3), 2704-2710.
10. Мухитдинов, Ш. М., Алиев, Д. Д., Исmoilов, К. Т., Мамурова, Г. Н., & Джуманова, Н. Э. (2019). Взаимосвязь биологически активных веществ с продуктивностью и физиологическими свойствами каракульских овец. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF NATURAL SCIENCES AND MEDICINE* (pp. 86-95).
11. Арипов, У. Х., Алиев, Д. Д., & Омонов, М. И. (2018). ПРИНЦИПЫ КАРАКУЛЕВОДСТВА И МОНИТОРИНГ ИХ БИОПРОДУКТИВНЫХ ПРИЗНАКОВ В ПУСТЫННО-ЛАНДШАФТНОЙ ЗОНЕ. In *Новые методы и результаты исследований ландшафтов в Европе, Центральной Азии и Сибири* (pp. 122-126).
12. Komiljon, I., Dilmurod, A., & Shavkat, M. (2022). Sur qorako 'l qo 'ylarining hayotchanligi, mahsuldorligi va reproduktiv xususiyatlarini oshirishning fiziologik ko 'rsatkichlarga bog 'liqligi. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(7), 49-56.
13. Ismoilov, K. T., & Aliyev, D. D. (2024). QON TARKIBIDAGI KALIY MIQDORINING SUR QORAKO 'L QO 'YLARINING KO 'PAYISH FIZIOLOGIYASI BILAN BOG 'LIQLIGI. *ILM FAN XABARNOMASI*, 1(2), 329-335.
14. Aliyev, D. D. (2022). TURLI TURLI EKOLOGIK GURUHGA MANSUB SUR QORAKO 'L QO 'YLARINING MAHSULDORLIGINI OSHIRISHNING AYRIM FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARGA BO'GLIEKOLOGIK GURUHGA MANSUB SUR QORAKO 'L QO 'YLARINING MAHSULDORLIGINI OSHIRISHNING AYRIM FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARGA BO'GLIQLIGI. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIIY JURNALI*, 646-649.
15. Хакимов, У. Н., & Алиев, Д. Д. (2018). УРАВНЕННОСТЬ ОКРАСКИ СЕРЫХ КАРАКУЛЬСКИХ ЯГНЯТ ПРИ СЕЛЕКЦИИ ПО ШЕРСТНО-КОНСТИТУЦИОНАЛЬНЫМ ТИПАМ. In *Современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования* (pp. 1120-1122).
16. Арипов, У. Х., Алиев, Д. Д., & Хакимов, У. Н. (2018). МЕТОДЫ СОХРАНЕНИЯ ГЕНОФОНДА И СЕЛЕКЦИЯ КАРАКУЛЬСКИХ ОВЕЦ СУР СУРХАНДАРЬИНСКОГО ПОРОДНОГО ТИПА. In *Современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования* (pp. 1122-1126).
17. Алиев, Д. Д. (2018). ФЕРМЕНТАТИВНАЯ АКТИВНОСТЬ КРОВИ КАРАКУЛЬСКИХ ЯГНЯТ РАЗНЫХ РАСЦВЕТОВ СУРХАНДАРЬИНСКОГО СУРА. In *Современное состояние, традиции и инновационные технологии в развитии АПК* (pp. 3-7).
18. АЛИЕВ, Д., АРИПОВ, У., & ИСМОИЛОВ, М. (2018). ПРОДУКТИВНОСТЬ КАРАКУЛЬСКИХ ОВЕЦ ОКРАСКИ СУР

СУРХАНДАРЬИНСКОГО ПОРОДНОГО ТИПА. *ЎЗБЕКИСТОН АГРАР ФАНИ ХАБАРНОМАСИ*, 133.

19. Алиев, Д. Д. (2016). БИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЯГНЯТ ПОДОПЫТНЫХ ГРУПП РАЗЛИЧНОГО ПРОИСХОЖДЕНИЯ. *ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ НАУКИ В XXI ВЕКЕ*, 455.

20. Арипов, У. Х., Алиев, Д. Д., & Беркинов, Д. (2016). ЗАДАЧИ И АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СЕЛЕКЦИОННОЙ РАБОТЫ В КАРАКУЛЕВОДСТВЕ. *ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ НАУКИ В XXI ВЕКЕ*, 483.

21. Арипов, У. Х., Алиев, Д. Д., & Беркинов, Д. (2016). ТЕОРИЯ КАРАКУЛЕВОДСТВА И МОНИТОРИНГ ИХ БИОПРОДУКТИВНЫХ ПРИЗНАКОВ. *ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ НАУКИ В XXI ВЕКЕ*, 478.

22. Aliyev, D. D., Aripov, U. X., & Ismoilov, M. S. (2006). BIOLOGICAL PECULIARITIES OF LAGGING DIFFERENT GROUPS OF DIFFERENT ORIGINS. *АКАДЕМИЯ НАУК РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН*, 26.

23. Aliyev, D. D., Aripov, U. X., & Hakimov, U. N. (2006). ENZYME ACTIVITY OF THE BLOOD OF THE KARAKULIAN LIGNS OF DIFFERENT COLORINGS OF THE SURKHANDARYA'S SUR. *АКАДЕМИЯ НАУК РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН*, 53.

24. АЛИЕВ, Д., АРИПОВ, У., & ИСМОЙЛОВ, М. (2018). ПРОДУКТИВНОСТЬ КАРАКУЛЬСКИХ ОВЕЦ ОКРАСКИ СУР СУРХАНДАРЬИНСКОГО ПОРОДНОГО ТИПА. *ЎЗБЕКИСТОН АГРАР ФАНИ ХАБАРНОМАСИ*, 133.